



CONDITIONS FOR THE FORMATION OF AN EDUCATED, FREE AND RESPONSIBLE GENERATION IN THE PROCESS OF BUILDING A NEW UZBEKISTAN, THE FOUNDATION OF THE THIRD RENAISSANCE

Gulshoda Z. Mikhlieva

independent researcher

Karshi branch of Tashkent University of Information Technology named after Muhammad al-Khwarazmi

Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Third renaissance, democracy, education, freedom of thought, responsibility, freedom, spirituality, national growth.

Received: 16.09.24

Accepted: 18.09.24

Published: 20.09.24

Abstract: In this article, it has been studied that in the process of new reforms in New Uzbekistan, increasing the freedom of citizens and educating strong, educated, free and responsible young people in all aspects is an urgent and main issue today. In order to realize the third renaissance in new Uzbekistan, the importance of educating the young generation to be educated, free-thinking and responsible is widely covered in this article. In addition, in order to lay the foundation of the Third Renaissance, the increased freedom of the state to citizens and the increased duty and responsibility of citizens to the state were compared.

YANGI O'ZBEKİSTONNI BARPO ETİSHDA, UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISH JARAYONIDA BİLİMLİ, ERKIN VA MAS'ULIYATLI AVLODNI SHAKLLANTIRISH SHARTLARI

Gulshoda Z. Mixliyeva

mustaqil tadqiqotchi

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali
Qarshi, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Uchinchi renessans, demokratiya, ta'lif-tarbiya, tafakkur erkinligi, mas'uliyat, erkinlik, ma'naviyat, milliy yuksalish.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda yangi islohotlar jarayonida fuqarolar erkinligini oshirilishi va har tomonlama kuchli, bilimli, erkin va ma'suliyatli yoshlarni tarbiyalash bugungi kunda dolzarb va asosiy masala ekanligi

o‘rganib chiqilgan. Yangi O‘zbekistonda uchunchi renessansni amalga oshirish uchun yosh avlodni bilimli, erkin taffakkurli va ma’suliyatli qilib tarbiyalash muhimligi ushbu maqolada keng yoritib o‘tilgan. Bundan tashqari Uchinchi renessans poydevorini qo‘yish uchun davlatning fuqarolarga bergan erkinligining oshirilganligi va fuqarolarning davlat oldidagi burch va mas’uliyatining ortganligi taqqoslangan.

УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ОБРАЗОВАННОГО, СВОБОДНОГО И ОТВЕТСТВЕННОГО ПОКОЛЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ СТАНОВЛЕНИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА, СОЗДАНИЯ ФУНДАМЕНТА ТРЕТЬЕГО ВОЗРОЖДЕНИЯ

Гулиода З. Михлиева

независимый исследователь

Каршинский филиал Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада аль-Хорезми

Карши, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Третье Возрождение, демократия, образование, свобода мысли, ответственность, свобода, духовность, национальный рост.

Аннотация: В данной статье исследовано, что в процессе новых реформ в Новом Узбекистане повышение свободы граждан и воспитание сильных, образованных, свободных и ответственных во всех аспектах молодых людей является на сегодняшний день актуальным и главным вопросом. Для реализации третьего ренессанса в новом Узбекистане в данной статье широко освещена важность воспитания молодого поколения образованным, свободомыслящим и ответственным. Кроме того, чтобы заложить основы Третьего Возрождения, сопоставлялись возросшая свобода государства перед гражданами и возросшие долг и ответственность граждан перед государством.

KIRISH

O‘zbekistonda istiqlolning dastlabki yillaridanoq huquqiy demokratik davlat hamda kuchli fuqrolik jamiyati barpo etishni bosh maqsad qilib qo‘yildi. Murakkablashib borayotgan ko‘p qutbli dunyoda Jahon xaritasidan joy olgan O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotida katta o‘zgarishlar vujudga kela boshladi. Davlatda borgan sari ochiq-oshkoraliq, demokratik tamoyillarga sodiqlik va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatlilik kuchayib bordi. Demokratik tamoyillar, qadriyatlar va jamiyatda erkinlik masalasi inson hayotining barcha

sohasiga kirib bora boshladi. Demokratlashtirish va kuchli fuqarolik jamiyatni barpo etish uchun shart-sharoitlar yaratildi.

ASOSIY QISM

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng O‘zbekiston hududida o‘zining maqsad va vazifalari, turmushni tashkil qilishdagi shart-sharoitlari, imkoniyatlari, tamoyillari kabilar bilan oldingi hamma davrlardan farq qiladigan, ayni zamonda o‘z an’analari va jahonning ilg‘or tajribalariga asoslanadigan yangi siyosiy birlik vujudga kelib rivojlanmoqda. Har bir fuqarolarimiz, qolaversa, butun jamoatchilik tomonidan ana shu muhim, demokratik yo‘nalishlarda bo‘lgan jarayonlarni chuqur anglanishi, idrok etilishi ko‘p jihatdan fuqarolarning fikr yuritishi, tafakkur borasidagi qobiliyat uning erkinligiga bog‘liqdir va shuningdek jamoatchilik fikrini faolligiga ham bog‘liqdir.

Jamiyatda insonlarning erkin fikrini, tafakkurini to‘g‘ri yo‘naltirish bugungi muhim masalalardan biridir. I.A.Karimov ta’kidlaganidek “...odamlarimizning tafakkurida o‘zgarishlar sekinlik bilan ro‘y berayotganligi, ularning yangi tizim qoidalarini qiyinchilik bilan idrok etayotgani va qabul qilayotgani ham ...salbiy holatlarni kuchaytirmoqda”[1]. Ushbu fikrlardan so‘ng masalaning yechimini ham aytib o‘tildi. Bunga binoan fikr erkinligini qaror topishi va rivojlanishi so‘z erkinligi bilan bog‘liqligidir. “Masalaning yana bir yechimi deb yozadi I.A.Karimov, - fikr erkinligi – so‘z erkinligini himoya qilish, shu huquqlarini amalda ta’milanishi uchun kafolat yaratish – bizning bugungi eng muhim vazifalarimiz bo‘lishi lozim” [1]. Fikr erkinligi o‘z-o‘zidan tashqi ta’sir va boshqaruvsiz amalga oshmaydi. O‘zbekiston “Milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o‘tish” jarayonida jamiyat a’zolariga judayam katta va keng imkoniyat, erkinlik berdi. Bu imkoniyatlarni biz jamiyatning har bir sohasida ya’ni iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy sohalarida ko‘rishimiz mumkin. Jamiyatni har tomonlama barqaror rivojlantirish uchun axolining dunyoqarashi, axloqiy, huquqiy saviyasini, ma’naviyatini, bilim darajasini har tomonlama mukammal o‘stirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston tushinchasi real voqelikka aylanmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu haqda shunday fikr keltirganlar: “Avvalo shuni aytish kerakki, o‘z yurtida ozod va erkin hayot, adolatli jamiyat barpo etishdek ulkan maqsadni o‘z oldiga qo‘ygan har qanday xalq, har qanday millat og‘ir, mashaqqatli va murakkab taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tadi. Mustaqil tarqqiyot borasida erishgan ulkan yutuqlar bilan birga, yo‘limiz ayrim xato va kamchiliklardan ham xoli bo‘limganini ochiq aytishimiz lozim. Mustabid tuzumdamdan voz kechib, demokratik jamiyat barpo etishga qaratilgan jarayonlar, murakkab va tahlikali”[2].

Yangi O‘zbekiston tushunchasi avvalo O‘zbekistonning yangi davri desak xato qilmaymiz. Bizga ma’lumki O‘zbekiston tarixida ikki marotaba renessans davri yuz bergen va bugungi yangi O‘zbekistonning bundan keyingi davrini uchinchi renessans davri desak yanglishmagan bo‘lamiz. O‘zbekiston tarixida birinchi marotaba konstitutsiya xalq muhokamasiga qo‘yilib referendum

o'tkazildi. Buni biz insonga berilgan katta erkinlik desak yanglishmagan bo'lamiz. Inson erkinligi, ularning manfaatlari birinchi o'ringa ko'tarildi. Jamiyatning barcha jabhalarida inson qadri yuksak darajalarga qo'yilmoqda.

Bizning xalqimiz ya'ni o'zbek xalqi azaldan yuksak ma'naviyatli shijoatli, mard va jasur yoshlarni voyaga yetkazib kelmoqda. Tarixga qaytadigan bo'lsak Qadimgi Turon hududida sak-massagetlarni ulug'vor ruhlantirgan va dushmanga qarshi turishga boshchilik qilgan To'marisni olamizmi yoki mo'g'ullar hujumidan qo'rqlmay xalqini o'z izidan ergashtira olgan Jaloliddin Manguberdinimi, yoki qudratli davlat tuzish uchun har qanday qiyinchilikka tura olgan va hech qaysi yovdan qo'rqlmay g'alaba sari intilganadolatli shoh Amir Temur bobomiznimi, yoki Sovet tuzumi nohaqliklaridan o'z xalqini himoya qilib O'zbekiston deb atalmish davlatni mustaqillikka erishtirish vaadolatli jamiyat barpo etish uchun har qanday adolatsizlikka ko'ksini qalqon qilib xalqini necha yillik orzusini ro'yobga chiqara olgan Islom Karimovni aytamizmi o'z xalqi uchun kurasha olgan haqiqiy vatanparvar o'zbek xalqining komil insonlaridir.

Bizning tariximiz davomida ikki marta uyg'onish davri bo'lганligini bilamiz. Birinchi uyg'onish davri Beruniy, Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos hojib kabi yuksak ilm sohiblarini yetishtirib chiqargan bo'lsaz ikkinchi uyg'onish davrida Lutfiy, Ali Qushchi, Jomiy, Alisher Navoiy kabi shoir, musavvir, bastakor, memorlarni olamga mashhur qilgan. Har ikki renessans davrida ham biz dunyoda ilg'or, yuksak saviyali xalqlar qatorida edik. Bundan tashqari chor rossiyasi hukmronligi davrida Turkiston hududidagi ziyorolar qatlagini ozodlikka, ilm ma'rifat erkinligiga qaratilgan harakati millatning qoloqlikdan chiqish, taraqqiyotga erishish va yana Ibin Sino, Beruniy, Al-Xorazmiy va Alisher Navoiy kabi millatni dovrug'ini dunyoga tanitadigan yetuk shaxslarni yetishtirishni oliy maqsad qilib qo'yishganligi millatimizning qanchalik ma'naviyatli vatanparvar shaxslarga boyligini guvoh bo'lamiz. Buni prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham o'z nutqlarida quyidagicha aytib o'tganlar: "O'tgan asrning boshlarida yurtparvar, millatparvar bobolarimiz – "jadidchilik", ya'ni, yangilanish va erkinlik,adolat va tenglik , ilm-ma'rifat va milliy o'zlikni anglash g'oyalarini bayroq qilib, kurash maydoniga mardona chiqqanlarini barchamiz yaxshi bilamiz. Bu ulug'zotlarning maqsadi - jaholat va qoloqlik girdobida qolib ketayotgan Turkiston xalqini dunyoviy ilm-fan, ilg'or kasb-hunarlar bilan qurollantirib, umumbashariy rivojlantirish yo'liga olib chiqishdan iborat edi"[2]. Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda buyuk ma'rifatparvar bobolarimiz kabi komil, yaratuvchan, hurfikirli shaxslarni tarbiyalashimiz zarur. Dunyo hamjamiyatida yana yuksak mavqeimizga erishishimiz uchun uchinchi renessans amalga oshirishimiz kerak.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng dastlabki yillaridan boshlab milliy tiklanish bosqichini amalga oshirdi. Bugungi kunda davlatimiz milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o'tish jarayonini boshidan kechirmoqda. Davlat rahbari bunday jarayondan so'ng

uchinchi renesans poydevorini barpo etishni strategik vazifa qilib qo‘ydilar. Jamiyat va davlat kelajagi uchun tuzilgan har qanday yuksak va ezgu rejalar jamiyat turmushini o‘zgarishi, inson ehtiyojlarini yaxshilanishi, erkinligini ortishi va ma’naviy kamoloti bilan bog‘lansagina reallikni kasb etadi. Aks holda u orzuligicha havoyi bo‘lib qolaveradi.

O‘zbekiston bugun kuchli demokratik va dunyoning rivojlangan davlatlari qatoriga kirishni yaqin keljakdagi asosiy rejamiz qilib qo‘yildi va bu natijaga erishish uchun xalqimizga munosib sharoit yaratib berilmoqda. Millatimiz va davlatimizda navbatdagi rennessanisni amalga oshirish va mamlakat taraqqiyotiga erishish uchun yuksak saviyadagi iste’dodlarni tarbiyalash juda muhim. Bunda ta’lim tarbiya sohasi katta ahamiyatga ega. Shuning uchun bugungi kunda mamalakatimizda ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan ishlar ko‘lami beqiyosdir. Tafakkuri keng va erkin bo‘lgan, ilmli va ma’naviyatli komil shaxslardan iborat bo‘lgan jamiyatda tabiiyki o‘sish va rivojlanish bo‘ladi. Buni to‘g‘ri anglagan prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev bu sohada juda katta islohotlarni amalga oshirmoqdalar. Darhaqiqat, so‘ngi yillarda qatiy turib, xalqni rozi qilish va jamiyatni yanada rivojlantirish yo‘lida qilinayotgan samarali mehnatlari o‘z natijasini bermoqda. Bugungi kunda sport sohasi deymizmi, ta’lim sohasida deymizmi jahon hamjamiyatida nufuzli o‘rinlar va yutuqlarga erishib kelayotgan yoshlarimiz ko‘payotganini guvohi bo‘lyapmiz. Endigma matabni bitirgan o‘quvchi yoshlar dunyonи bir vaqtning o‘zida bir nechta nufuzli oliy ta’lim dargohlariga qabul qilinyapti. Bu yutuqlar bugunki rivolanish yo‘lidagi davlatimizning jamiyatga berayotgan keng imkoniyati evaziga desak yanglishmagan bo‘lamiz.

Yangi O‘zbekistonda birinchi marotaba konstitutsiya xalq referendumiga qo‘yildi va unda inson huquq va erkinliklari yanada oshirildi. Inson huquq va erkinliklarini oshirilishi bilan barobar fuqarolarning ma’suliyati ham oshdi. Tan olishimiz kerakki fuqarolarimizning bir qismida boqimandalik, loqaydlik, befarqlik illatlari to`liq bartaraf etilmagan, mafkuraviy imuniteti, erkinlik va ma`suliyat tuyg`usi zaifligi tufayli turli oqimlarga kirib ketayotganligi bor gap. Agar ularda erkinlik tuyg`usi yetarlicha bo`lganida, yana qandaydir xalifalikning bir chekka viloyatiga qandaydir buyuk davlatning izmidan chiqolmaydigan mamalakatga aylantirib qo`yishni qat`yan rad etardi. Millat va mamlakat taqdiriga mas`uliyat bilan yondashardi.. Bugun biz yosh avlodni milliy g‘oya ruhida tarbiyalash, Vatan oldidagi burchi va ma`suliyatini tushuntirish hamda mamalakatimizda uchinchi Renessansni yaratish kabi amaliy vazifalarni bajarish yosh avlodda va butun aholida erkinlik va ma`suliyat tuyg`usini shakllantirishimiz zarur. Inson huquq va erkinliklari himoya qilinmagan davlatda jamiyatning ijobiy rivojlanishi va tarqqiyoti toxtab qoladi. Inson yetarli huquq va erkinliklar hamda muayyan majburiyatlarga ega bo‘lsagina shaxs sifatida o‘z imkoniyatlarini namoyon qila oladi. Bu o‘z navbatida jamiyat taraqqiyotiga yo‘l ochib beradi. Bugungi shiddat bilan o‘zgarib borayotgan dunyoda millat va xalqlarning hayoti va barqaror

rivojlanishiga xavf solayotgan tahdidlar, zo‘ravonliklar ko‘paymoqda. Bu xavflarga qarshi tura olish millatimizni tinchligi va davlatimizni rivojlanishdan to‘xtamagan holda dunyo rivojlangan davlatlar qatoriga qo‘shishimiz uchun ma’naviyat va ma’rifatga, jamiyatimizning barcha qatlamlarining axloqiy tarbiyasiga har qachongidan ham ko‘proq e’tibor qaratishimiz muhimdir. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich aytganlaridek “Ta’lim-tarbiya va ma’rifat jamiyat barqarorligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezglikka da’vat etadi, saxovatli, sabr qanoatli bo‘lishiga undaydi”.[3]

Ma’naviyati, madaniyati, qadriyatlari va o‘z tarixini yaxshi bilmaydigan jamiyatning kelajagi ham yo‘q bo‘ladi. Bunday xalq asta-sekin o‘z-o‘zidan hukumron xalqqa singib ketadi. Biz yoshlarimizni haqiqiy vatanparvar, mard va jasoratli, o‘z erkinlik va burchlarini to‘g‘ri tushina oladigan yosh avlodni tarbiyalashimiz uchun o‘z tariximizni mukammal o‘rgatishimiz, buyuk sarkarda bobolarimiz hayoti, jangovor faoliyatları, davlat ishilaridagi jonbozliklarini yoshlarga o‘rgatishimiz va targ‘ibot ishlarini olib borishimiz katta ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytamizki, bugungi dunyo davlatlari shiddat bilan rivojlanayotgan, g‘oyaviy tahdidlar kuchaygan, tahlikali zamonda, globallashuv davrida yuksak ma’naviyatli, erkin tafakkurli, bilimli yoshlar suv va havodek zarur. Renessansni tayanchi bo‘lmish har bir komil shaxslar, pedagoglar, tarbiyachilar hamda butun o‘zbek millati ziyorilari berilayotgan imkoniyat va shart sharoitlardan foydalanib, erkin tafakkurli, ma’suliyatli, bilimli va yuksak ma’naviyatli avlodni tarbiyalash va uchinchi renessans barpo etishga ishontirishimiz kerak. Yangi O‘zbekistonda “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” rivojlanmoqda va shu g‘oyaga asosan uchinchi renessans poydevorini yaratishni o‘z rejasiga kiritdi. Bu rejani amalga oshirish uchun millatimizning har bir a’zosi vatanparvar, xalqparvar bo‘lishi va yosh avlodni renessansni amalga oshiradigan yetik shaxs qilib tarbiyalashga ko‘maklashishi va ma’suliyat bilan yondashishi muhimdir. To‘g‘ri renessansni amalga oshirish bir yoki ikki yilda amalga oshirolmasisligimiz mumkin ammo, manashu renessansni yaratadigan avlodni shakllantirishga imkoniyatimiz yetarlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I. Vatan va xalq manfaati har narsadan ulug‘. –T., Adolat, 1998. –B.55.
2. <https://uzreport.news/politics/prezident-yangi-ozbekiston-va-uchinchi-renessans-sozlari-hayotimizda-ozaro-uygun-va-hamoha>
3. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekistonda taraqqiyot strategiyasi”. –Toshkent, O‘zbekiston, 2023. –B.261.
2. Abdurashid Abdurahmonov. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. – T.: 2005. –B.277.
3. Abdurahim Erkayev. Ma’naviyat va taraqqiyot. –T.: 2009. –B. 389.

4. Abdurahim Erkayev, Zohiriy va botiniy erkinlik // Tafakkur jurnali, 2018. №3. –B.13.
5. История политических учений / Под ред. О.В.Мартышина. -М., 1996. Вып. -С.61-67.
7. Т.Гоббс. Левиафан. Мир философии. М. “Политическая литература”. 1991.